
Tumanimizda Xitoy investitsiyasi ishtirokidagi loyihalar amalga oshiriladi

Bugun tuman hokimligida tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov, tuman hokimi o'rinbosari Abdusalom Siddiqov hamda Xitoyning Guanjo shahridagi bosh konsulxona vakillari bosh konsul Otabek Valiev, uning kotiblari Baxtiyor Mirzaev va Rahmon Ernazarovlar bilan onlayn tarzda muloqot bo'lib o'tdi.

Muloqot jarayonida avgust oyi oxirida Rishton tumani delegatsiyaning Xitoyga tashrifi masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, tumanda amalga oshirilayotgan loyihalar to'g'risida ma'lumot berildi. Rishton kulolchiligi xususan, chinni mahsulotlarining sifatini yanada oshirish bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan ishlar, xitoylik investorlarga beriladigan imkoniyatlar ham muhokama qilindi.

Ma'lumot o'rnida Rishton tumani delegatsiyasi Xitoyning - Guanjo, Shanxay, Fashon shaharlariga borish rejalashtirilgan.

2024-08-15 18:04:48